

HISOB - SHARTNOMA № YCK-143

tezkor ekspertiza uchun axborotni izlashni o'tkazish to'g'risida

“ 01 ” 02 _____ 2022-yil

Toshkent shahar

Nizom asosida ish ko'ruvchi, keyinchalik "Ijrochi" deb yuritiluvchi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi (IMA) nomidan direktori T.S. Abdusattarov bir tomondan va 24.11.2020y N-49D ishoniqnomaga asosida ish ko'ruvchi, keyinchalik "Buyurtmachi" deb yuritiluvchi "YAGONA UMUMIY RESPUBLIKA PROTSESSTING MARKAZI" MCHJ nomidan ish ko'ruvchi Bosh dir. bir. o'rinbeshari Abbarov K.A. ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. "Buyurtmachi"ning topshirig'i bilan "Ijrochi" quyidagi xizmatlarni bajaradi:

T/r	Xizmatning nomlanishi (talabnoma raqami)	O'lov birligi	Miqdor	Baho	Xizmat narxi	QQS		QQS bilan xizmat ko'rsatish narxi
						stavka	summa	
	1	2	3	4	5	6	7	8
4.2	Tasvirlili to'lar belgisini tezkor ekspertizadan o'tkazish		1		14580000	QQSsiz	QQSsiz	
						QQSsiz	QQSsiz	
						QQSsiz	QQSsiz	
						QQSsiz	QQSsiz	
						QQSsiz	QQSsiz	
						QQSsiz	QQSsiz	
						QQSsiz	QQSsiz	
						QQSsiz	QQSsiz	
	Jami to'lov				14580000	QQSsiz	QQSsiz	

2. XIZMAT KO'RSATISH TARTIBI

- "Ijrochi" tomonidan xizmatlarning ko'rsatilishi "Buyurtmachi" taqdim etgan ma'lumotlar asosida, O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 31-martdagi 113-um-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi tomonidan ko'rsatiladigan ish va xizmatlar ro'yxatiga muvofiq amalga oshiriladi.
- Xizmat ko'rsatilishi fakti ushbu shartnomaga muvofiq tayyorlangan hujjatlarni "Buyurtmachi" manziliga yuborish to'g'risidagi pochta kvitansiyasi bilan tasdiqlanadi, bunda "Ijrochi" tomonidan imzolangan hisob-faktura ilova qilinadi. Xizmat ko'rsatish natijasida tayyorlangan hujjatlar to'g'ridan-to'g'ri "Buyurtmachi"ga berilishi mumkin, bunda hisob-fakturani har ikki tomon imzolaydi.

3. TO'LOVNI AMALGA OSHRISH TARTIBI

- Ushbu shartnoma bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlarning umumiy miqdori aksiz solig'i va QQSni hisobga olmaganda 14580000 so'mni tashkil etadi.
- To'lov shartlari - 100% oldindan to'lov.
- "Buyurtmachi" ushbu shartnoma imzolanganidan keyin 10 kun ichida "Ijrochi"ning hisob-kitob hisobvarag'iga mazkur shartnomaning 3.1-bandida ko'rsatilgan miqdordagi summmani o'tkazish majburiyatini oladi.
- Shartnomada belgilangan miqdorni to'lash faktiga qadar bazaviy hisoblash miqdorining o'zgaranda xizmat narxi bazaviy hisoblash miqdoriga mutanosib ravishda o'zgaradi.
- To'lov hujjatlarini to'lash tafsilotlarida quyidagilarni ko'rsatishingiz kerak: sh/h 400110860262777038100009001, STIR 302070846, O'zRes AV huzuridagi IMA, 7038100-001, ko'rsatiladigan xizmatning nomlanishi.

4. TOMONLARNING MAJBURIYATI

- Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar lozim darajada bajarilmaganda tomonlar O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.
- Ushbu shartnomadan kelib chiqadigan nizolar va kelishmovchiliklar muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi. Nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal etishning iloji bo'lmasa, tomonlar ularni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq hal qiladilar.

5. FORS-MAJOR HOLATLAR

- Agar tomonlar ushbu shartnoma tuzilgandan keyin yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlar (fors-major holatlari) natijasida sodir bo'lganligi, oqilona choralar bilan oldini olishni iloji bo'lmaganligi va o'z majburiyatlarini to'liq bajarish uchun mumkin bo'lgan va ularga bog'liq bo'lgan barcha choralarini ko'rganliklarini isbotlansa, tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarining bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun javobgar bo'lmaydilar. Fors-major holatlariga, xususan: harbiy harakatlar, tabiat kuchlarining ta'siri (zilzila, suv toshqini va boshqalar), davlat organlarining qarorlari kiradi.

- 5.2. Tomonlar fors-major holatlari yuzaga kelgan paytdan boshlab bir-birlarini uch kun ichida xabardor qilishlari shart.
5.3. Fors-major holatlari yuzaga kelgan taqdirda, ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddatlari bunday holatlar va ularning oqibatlari amal qiladigan davrga qoldiriladi.

6. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

- 6.1. Ushbu shartnoma imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq bajarmaguncha amal qiladi.

7. BOSHQA SHARTLAR

- 7.1. Tomonlar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda O'zbekiston Respublikasining korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qonunchilik talablariga zid keluvchi hech qanday hatti-harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligi xodimi tomonidan o'z xizmat mavqeidan foydalanib pora beruvchining manfaatlarini ko'zlab sodir qilishi mumkin bo'lgan ma'lum hatti-harakatlarni bajaraganligi yoki bajarmaganligi uchun bevosita yoki bilvosita, porani ya'ni pul, yoki boshqa mol-mulkni, mulkiy tusdagi daromadlarni olishga rozilik bermaydilar va olmaydilar, taklif qilmaydilar, va'da bermaydilar, ta'ma qilmaydilar, to'lamaydilar.

Agar shartnoma bo'yicha ahdlashuvchi tomon O'zbekiston respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligi xodimining axloqsiz hamda mazkur shartnomaga va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid keluvchi hatti-harakatlariga, shu jumladan, korruptsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir qilishga majburlashi kabi holatga duch kelsa, unda Tomon bu haqda quyidagi aloqa kanallari orqali xabar berishi lozim:

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligining (+998 71) 232-50-54 raqamli "Ishonch telefoni" yoki O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining "1008" raqamli "Call-markazi" orqali;

Adliya vazirligining "@anticorbot" Telegram-kanali orqali;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligining korruptsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha Anketasi orqali;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligi elektron pochta (info@ima.uz) orqali.

- 7.2. Mazkur shartnoma asosida o'tkazilgan axborotni izlash natijalariga asosan Agentlik amaldagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq intellektual mulk obyektlarining muhofazaga layoqatliligi bo'yicha davlat ekspertizasini o'tkazadi. Ushbu shartnoma asosida axborotni izlashni o'tkazish Agentlik tomonidan tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi qaror yohud ixtiro/foydali model yoki sanoat namunasiga patent berish to'g'risidagi qaror chiqarilishini kafolatlamaydi.
- 7.3. Agar ushbu shartnomada ko'rsatilgan talabnoma(lar) bo'yicha muhofaza hujjati berilgandan keyin avvalroq ustuvorlik muddatiga ega bo'lgan intellektual mulk obyekti aniqlansa, muhofaza hujjatlari qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda tugatiladi.
- 7.4. Ushbu shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirishlar va qo'shimchalar, agar ular yozma ravishda tuzilgan va ikkala tomon imzolagan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.
- 7.5. Ushbu shartnoma ikki nusxada, har bir Tomon uchun bittadan tuzilgan, ularning har biri bir xil yuridik kuchga ega.

«IJROCHI»

«BUYURTMACHI»

O'zRes Moliya vazirligi G'aznachiligi
H/r 23402000300100001010
Sh/r 400110860262777038100009001
Toshkent sh. bo'yicha MB HKKM
MFO 00014, STIR 201122919
O'zRes AV huzuridagi intellektual mulk agentligi
100011, Toshkent sh., Xadra 33.
STIR 302070846. OKED 84111
Tel.: (+99871) 232-50-50
Faks: (+99871) 232-50-05

Direktor

m.j.



ООО «ЕОПЧ»
Г. ТАШКЕНТ ул. А.ДУЛЛА КОДИРИЙ 78
☎ 71-2021118
P/C 20208000300600302001
В НПАК ЙУЛАН БАНК.,
Г. ТАШКЕНТ МФО 01145
ИНН 202042839 ОКОНХ82100

Rahbar

m.j.



1001. Ver 63